

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA IJOBIY BAHO IFODALOVCHI OQ VA
QORA RANG-TUS BILDIRUVCHI LEKSEMALAR

Dilzoda Vahidova

Qo'qon DU Rus tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Erkin Vohidov lirikasida rang-tus bildiruvchi sifatlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligida rang bildiruvchi leksemalarning o'rganilishi, ularning semantik guruhlar va badiiy nutqdagi funksional imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tilshunosligi, sifat so'z turkumi, rang-tus bildiruvchi sifatlari, rang leksemalari.

O'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so'zlar alohida mavqega ega. Bu borada rang-tus bildiruvchi sifatlarning ham o'z o'rnini bor. O'zbek tilshunosligida rang-tus bildiruvchi so'zlar bir qator tadqiqotlarning o'rganish obyekti bo'lgan. M.Sodiqova rang bildiruvchi so'zlarning leksik-semantik hamda grammatik ko'rsatkichlari tadqiqi bo'yicha ish olib borgan. Bu ishda tilshunos sifatida Sodiqova rang ma'nosini ifodalovchi so'zlarning asliy va taqlidiy ranglarga bo'lib o'rganadi. Taqlidiy rang nomlari tabiatdan rangdor predmetlar tusiga taqlid asosida hosil qilinadi: gunafsha rang, qovoq rang. Asliy ranglar turkumiga oq, qora, qizil, sariq, yashil, malla, qo'ng'ir rang nomlari kirib, taqlid qilinadi. Xususan, M.Sodiqova bu tipdagi so'zlardagi daraja kategoriyasining ifodalanishiga alohida e'tibor qiladi.

M.G'anixov jayeva sifatlarni qiyosiy-diaxronik aspektda tadqiq etadi. Bunda rang-tus bildiruvchi sifatlarni semantic-funksional jihatdan tahlil qilinadi hamda ayni so'zlarning yozma yodgorliklaridagi ekvivalentlari bilan aloqa masalasi ko'rib chiqiladi.

H.Tojimatov esa rang bildiruvchi sifatlarni ma'nosini reallashtirish uchun (misollar orqali), rang bildiruvchi sifatlarni sifatlovchilari birikmaning sifatlovchisi, o'xshatish qurilmasining asos bo'lagi sifatida berilishi kerak degan xulosaga keladi. Olim rang bildiruvchi sifatlarning ma'nosini izohli lug'atda misollar orqali reallashtirishni tadqiq etar ekan, quyidagi xulosaga keladi:

1. Rang, tus affiksoidlari bilan yasalgan sifatlarning va rang bildiruvchi epitetlarning ma'nosini misollar vositasida ochish uchun uni sifatlovchi vazifasida berish va gapda shu rang aniqlik kirituvchi so'z bilan grammatik va ma'no jihatdan bog'langan holda kelishi nazarda tutilgan.

2. Birdan ortiq rang aralashmasini yoki ma'lum bir rangdan ikkinchi rangga moyillik bildiruvchi sifatlarni misol vositasida reallashtirish uchun gap tarkibida o'sha sifat ma'nosining har bir uzvini ochuvchi so'z kiritilishi kerak. Bu realizatorlar o'z reallanmasi bilan ma'no jihatdan bog'liq bo'lib kelishi e'tiborga olinadi.

H.Tojimatov maqolalaridan birida rang-tus bildiruvchi sifatlarni quyidagi guruhlariga bo'lgan:

1. Aniq bir rangni bildiruvchi sifatlari;
2. Birdan ortiq ranglar aralashmasini bildiruvchi sifatlari;
3. Ma'lum narsaga xos rangni bildiruvchi sifatlari;
4. Rang-tus affiksoidlari bilan hosil bo'lgan sifatlari.

Rang-tus bildiruvchi sifatlari aniq bir rangni anglatmay, unga qo'shimcha belgilar ham ifoda topgan bo'lsa, ular ham mazkur ma'no uzvi hisoblanib alohida realizator talab etadi.

O'zbek tilshunosligida rang-tus bildiruvchi sifatlarning leksek-semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar yaratilgan.

Rang-tus bildiruvchi sifatlarning ma'nodoshlarini yaxshi bilish va o'z o'rnida qo'llay bilishi shoirning nutqiy mahoratini ko'rsatar ekan, bitiruv malakaviy ishida rang-tus bildiruvchi so'zlarning Erkin Vohidov ijodidagi til xususiyatlari atroflicha tahlil qilishga harakat qildik.

O'zbek tili morfologik tizimida boshqa turkumlarga nisbatan sifat so'z turkumida baholash munosabati imkoniyatlari keng. Sifat leksemalarning o'ziga xos jihatlari turli ma'no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishi uning boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar bilan o'zaro munosabatga kirishuvidan aniq ko'zga tashlanadi.

Predmetning belgi alomatlaridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlari predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun ishlatiladi.

Rang-tus bildiruvchi so'zlar poetik nutqning emotsional obrazlilik va ta'sirchanligini oshiruvchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Binobarin, rang ifodalovchi

soʻzlar sheʼriyatda rang bildiruvchi poetizmlar oʻlaroq nutqqa badiiylik baxsh etib, maʼlum uslubiy vazifani bajaradi.

Darhaqiqat, rang-tus bildiruvchi leksemalar sifat turkumining eng katta razryadlaridan biri hisoblanadi. Rang-tus bildiruvchi leksemalarning xarakterli tomoni ularning koʻchma maʼnolarda oʻtishdagi elastikligi, moslashuvchanligidir. Rang nomlari oʻz maʼnolaridan ham koʻproq koʻchma maʼnoda qullaniladi. Bu nutqiy koʻchma maʼno emotsional-ekspressivlikka yoʻl beradi. Masalan, qora, oq soʻzlarining 10-15 maʼnoni ifodalash imkoni mavjudligi kuzatiladi.

Rang-tus bildiruvchi leksemalar oʻzi birikib kelgan leksema maʼnosiga ijobiy yoki salbiy emotsional-ekspressiv maʼno yuklaydi.

Erkin Vohidov lirikasida sheʼr tilini jozibadorligini, taʼsirchanligini oshirishda rang-tus bildiruvchi soʻzlarning oʻrni nihoyatda katta.

Erkin Vohidov sheʼriyatida rang-tus bildiruvchi soʻzlar lirik qahramonlarning kechinmalari, badiiy muhitning tasviri ishonarli, obrazli boʻlishida katta rol oʻynagan. Quyida Erkin Vohidov sheʼriyatida ijobiy baho semasini ifodalagan rang-tus bildiruvchi soʻzlarining semantikasi ustida toʻxtalib oʻtiladi.

Oq rang-tus bildiruvchi leksemasi predmetning belgisini bildiruvchi eng faol birliklardan sanaladi. Oq leksemasi ham predmetning rang-tusini bildirishdan tashqari yana bir qancha okkozional uslubiy semalarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

- 1) Ramziy maʼno ifodalash vositasi boʻladi;
- 2) Maʼnoni kuchaytirish vositasi boʻladi;
- 3) “Yurt”, “mamlakat” semasini bildiradi;
- 4) “Begʻubor”, “pokiza” semalarini bildiradi;
- 5) “Pok”, “begunoh” semalarini ifodalaydi;
- 6) “Yorugʻlik” semasini bildiradi.

Oq leksemasining uslubiy jihatdan qoʻllanish xususiyatlarini quyidagi jadval orqali koʻrsatish mumkin:

Erkin Vohidov sheʼriyatida oq rang soflik, toʻgʻrilik, yaxshilik, yorugʻlik, ulugʻlik, adolat, eng asosiysi, goʻzallik maʼnolarida keng yoritilgan.

Erkin Vohidovning quyidagi sheʼrida oq leksemasida sof belgi maʼnosida qoʻllangan:

*Deyman bulutlarga chulg'angan oppoq
Tumanli boshingga quyosh to'kar nur.
Kimsanki, qarshimda yuksalib mag'rur,
Uzoq-uzoqlarga boqasan, o'rtoq?
Aks-sado der: Tog'!..*

Oq leksemasida sof belgi ma'nosi bo'lib, qor, sut, paxta rangidagi predmetning xususiyatini ifodalaydi.

Yuqoridagi she'rda shoir tog'ning cho'qqisidagi qorning rangini ifodalovchi oq leksemasini orttirma darajada qo'llab, ma'nosini yorqinlashtirgan va hissiy ta'sirchanligini oshirgan.

Erkin Vohidov yana bir she'rda oppoq leksemasi ishtirok etgan:

*Oppoq tumanlarga chulg'anib yotar
Moviy samolarga tutashgan boshing.
Bu yurtda eng avval senda tong otar,
Eng keyin tark etar seni quyoshing.*

Erkin Vohidov ushbu she'rda tog'ning ulug'vorligini kuylarkan, unda tumanlarga chulg'angan tog'ning cho'qqisi – boshini oppoq leksemasi orqali ifodalab, bu rangni “beg'uborlik” semasida qo'llagan.

Shoirning ijobiy emotsional-ekspressiv maqsadda aytgan niyati oq yo'l birikmasi orqali izohlangan. Oq leksemasi esa ijobiy baho semasini tashuvchi asosiy so'z bo'lib xizmat qilgan.

Oq leksemasi soch, soqol so'zlariga nisbatan qo'llanganida insonning keksayib qolganligi ma'nosi ifodalanadi.

Erkin Vohidov “keksaymoq”, “ulug' yoshga yetmoq” ma'nosini anglatishda semantik-uslubiy vosita sifatida oq leksemasidan foydalangan:

*Qolganlar umrning
Sarhisobin qilar,
Soch oqiga boqib surarlar hayol.
Nido*

She'riy asarlarda oq so'zi keng stilistik imkoniyatga ega semantik-uslubiy vosita sifatida yuzaga chiqadi.

Oq so‘zi inson tanasi a‘zolari belgisini ifodalaganida ijobiy baho semasini ifodalaydi: To‘lgan oydek oq yuzi bir oz qizardi... (A.Q.)

Oq leksemasi yuz rangini shu tusga moyilligi, tiniqligi, chiroyliligi belgisini anglatadi. Bu sema sof nutqiy sema bo‘lib, konnotativ ma‘no hisoblanadi.

*Yo ‘q, fikrim band etgan oqqushlar emas,
Sabo yo parivash boqishlar emas,
Na suv ko ‘zgusida ko ‘ringan hilol,
Na chehrasi ol!*

Shoirning “Majnuntol” she‘ridan olingan ushbu parchada “oqqush” qo‘shma so‘zi tarkibidagi oq leksemasi qush so‘ziga birikib ijobiy ma‘noni ifodalashga xizmat qilgan. She‘rda oqqush leksemasi ko‘chma ma‘noda qo‘llanilib “yor”, “qiz” ma‘nosini ifodalagan.

Sheyx ul-mashoyix Ahmad Yassaviy to‘rtliklarida oq va qora ranglar zidligida chuqur ma‘rifiy-tarbiyaviy g‘oyalar ifoda etilgan:

*Sochu soqol ko ‘b oqardi, ko ‘ngul qaro,
Tongla borsam yo chuchakman, yoxud saro.
Kim “alastu bi robbukum” demish vakto,
Bilolmasman qayu jam ‘din bo ‘ldim mano.*

Erkin Vohidov ham Ahmad Yassaviy kabi oq va qora ranglarni o‘zaro zid quyish orqali jonli tasvir yaratuvchi timsoliy lavha, hayotiy kuzatishlardan o‘rin olgan xalqona donishmandlik ruhidagi ta‘sirli obraz yarata olgan:

*Oqni oq dey, qaroni qaro,
Tan berayin qilganda xato.*

Oq va qora rang o‘zaro qarama qarshi kontrast ranglar bo‘lib, bu ranglarni ifodalovchi so‘zlar o‘zaro antonimdir. She‘riyatda lirik qahramonning kechinmalari, badiiy muhitning tasviri ishonarli, obrazli bo‘lishida antonimlarning roli kattadir. Asosan bu sifatlar otlashgan holda ishlatiladi. Masalan, Erkin Vohidov yuqoridagi she‘rida oq rang timsolida haqiqatni, qora timsolida uning aksini ko‘rsatgan.

Oq leksemasi asli “toza” ma‘nosini bildiradi. Bu uning genetik ma‘nosi hisoblanadi. Keyinchalik so‘zlarning ma‘no taraqqiyoti natijasida oq leksemasi rang bildiruvchi ma‘no hosil qilgan.

Oq leksemasi tarixiy qo‘llanishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, shu ma’lum bo‘ladiki, rang-tus bildiruvchi aq sifati o‘g‘uz tiliga oid bo‘lib, turklar uning o‘rniga o‘ro‘n leksemasini qo‘llashgan. Keyingi davr manbalarida oq leksemasining mavqei ko‘tarilgan va u ma’nodoshini istemoldan siqib chiqargan.

Oq so‘zining poetik nutqda uslubiy vosita sifatida fikrni ifodalash imkoniyatlari ko‘lami keng. She‘riyatda Erkin Vohidov oq leksemasini qo‘llash orqali ma’lum bir ma’no nozikliklarini ifodalashni ko‘zda tutgan.

Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanganda emotsional-ekspressivlikdan xoli bo‘ladi, umimg vazifasi rang to‘g‘risida xabar, ma’lumot berish bilan cheklanadi. Qora leksemasi so‘zlovchi yoki yozuvchining o‘z nutqi qaratilgan shaxsga bo‘lgan munosabati nuqtayi nazaridan matnga bog‘liq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin.

A. N.Kononov “qora” sifat leksemasining ma’nolarini tadqiq etib, bu leksema bilan “katta”, “yirik”, “muhtasham”, “ulug‘”, “qudratli”, “kuchli”, “pokiza”, “musaffo”, “quruqlik”, “yer”, “zulmat ko‘ki”, “shimol” kabi semalar ifodalanganligini ko‘plab misollar yordamida izohlab bergan. Olimning ta’kidlashicha “Kitobi Dadayi Qo‘rqut”dagi qahramonlar nomida mavjud qora sifatlari ulug‘lik va jasorat, kuchlilik sinonimi sifatida qo‘llangan.

She‘riyatda qora rang bilan bog‘liq ramziy obrazlardan keng foydalaniladi. Qora leksemasini Erkin Vohidov lirikasida qo‘llanilishiga e‘tibor qaratsak, bu leksemani qo‘llashda shoirning o‘ziga xos uslubiyatini ko‘ramiz. U qora leksemasini mumtoz shakliga ko‘proq murojaat qiladi:

*Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz
Qilur qatlimga qasd qayrab-
Qilich qotil qaroshing qiz.*

Shoirning “Q” ismli qizga qasida”sida qora leksemasi kishi tana a’zolaridan biri qoshga nisbatan ishlatilib ijobiy baho bildirgan. Chunki qoshning qora bo‘lishi mumtoz adabiyotda ham, hozirgi she‘riyatda ham go‘zallikning shartlaridan biri hisoblanadi. Erkin Vohidov “qaro qoshing” deyish bilan “Q” ismli qizning go‘zalligini ochib bergan. Bunda qora leksemasi ta’sirchanlikni oshiruvchi, aniqlik va obrazlilikni

ifodalovchi epitet sifatida qoʻllagan.

*O'sma qo'ydingmi qoshingga, bunchalar
tim qoradir,
Bilmadim, bu qoshlaringdan qancha
dillar poradir,
Rahm qilg'il, bitta o'zbek shunchalar
yolvoradir,
Tush o'zing, yo ayt, yoningga qaysi
yo'ldan boradir?*

Shoir bu she'rida ham qoshga nisbatan qora sifatini ishlatgan. Qora sifatini kuchaytiruvchi soʻz hisoblangan. Tim soʻzi bilan birga kelishi tasvirni boʻrtirib koʻrsatishga xizmat qilgan.

Qadimgi turkiy tilda ham tim kuchaytiruvchi soʻzi shunday (oʻta, butunlay) maʼnoni bildirgan bu soʻz asli tum tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik oʻ unlisi i unlisiga almashgan: toʻm>tim. Bu soʻz dastlab otlarning tusini bildiruvchi sifatlar bilan (toʻm torugʻ, toʻm qoraʻ kabi) ishlatilib, keyinchalik faqat qoʻra sifati bilangina ishlatiladigan boʻlgan, lekin tim qoʻra at, soʻch, qaʻsh koz, ton,...

Tim kuchaytiruvchi soʻzining boshqa ranglar bilan bogʻlana olmasligining sababi ular oʻrtasida semantik bogʻlanuvchi maʼnolar tarkibida umumiy (bir xil) sema boʻlib hisoblanadi. Bunday umumiy semaning boʻlishi leksek maʼnolarning semantik bogʻlanishini va bir-biri uchun yaqin leksik kontekst boʻlib kelishini taʼminlaydi. Shuning uchun tim soʻzi faqat qora sifatiga bogʻlana oladi. Boshqa rang-tus bildiruvchi sifatlarga bogʻlanmasligining sababi ular oʻrtasida ideografik semalarning mavjud emasligidir.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodida oq va qora leksemalarini qoʻllash orqali maʼlum bir maʼno nozikliklarini ifodalashga harakat qilgan. Oq leksemasi Erkin Vohidov lirikasida quyidagi ijobiy maʼnolarni ifodalagan: Sof belgi: oppoq tumanlarga chulgʻanib yotar...; “Keksaymoq” maʼnosida: Soch oqiga boqib surarlar hayol; “Istak” semasida: Oq yoʻl tilab qolgʻum dilrabo.

Shuningdek, shoirning qora leksemasidan ijobiy baho semasini yaratish mahoratiga ham alohida eʼtibor qaratildi va quyidagi xulosalar chiqarildi: Gʻazal

ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘lgan shoirning shu janrdagi she‘rilarida qora leksemasi qaro shaklida ishlatilganligi leksemaning ta’sirchanligini oshiruvchi vosita bo‘lgan; Shoir g‘azalida qora leksemasini qosh leksemasiga nisbatan ishlatganda “go‘zallik” semasini ifodalagan; Qora so‘zi tim kuchaytiruvchi so‘zi bilan birga qo‘llanganda tasvirni bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. –Toshkent, 1974.
2. Vohidov E. Tanlangan asarlar.3 jildlik. –Toshkent, 1984-1986.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent, 1981.
4. G‘aniyeva B. O‘zbektilida rang bildiruvchi so‘zlarning semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Bozorov O. Rang semantikasi va uning badiiy matndagi funksiyasi. – Toshkent, 2011.
6. Umarov A. Erkin Vohidov poetikasi // limiy maqolalar. –Toshkent, 1980-2010.
7. Jurayeva, N., Küçük, S., Soyer, A., & n Kaba, H. (2025). Xorazm Shevalari O ‘g ‘uz Lahjasi Leksikasida Murakkab Tarkibli Dialektal Birliklarning O ‘rni1.
8. Mahmudova, S. (2024). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. «ACTA NUUZ», 1(1.1. 1), 288-292. S Mahmudova - «ACTA NUUZ», 2024
9. Abdusalomovna, S. M. (2025). ERKIN A’ZAM NASRIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 17(02), 747-749.
10. Махмудова, Ш. А., & Республикаси, Ў. (2021). НУТҚДА СЎЗНИ ТЎҒРИ ТАНЛАШ МЕЗОНЛАРИ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 1148-1151.
11. Abdullayeva, M. O. Q. (2023). RAQAMLI RESURLAR ASOSIDA ADABIYOT DARSLARINI O‘QITISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 7-11.
11. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
12. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.

14. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
15. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.